

“MUSOFIR BO’LMAGUNCHA” ASARINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI

Jo’rayeva Mehriniso Safar qizi

Termiz davlat universiteti

O’zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbek tili ta’lim yo’nalishi

2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sharof Boshbekovning “Musofir bo’lmaguncha” asarining fonetik-fonologik tahlili yuzasidan fikr yuritilgan bo’lib, matnni tahlil qilishda matn tarkibida qo’llanilgan dialogik suhbatdagi unli va undosh tovushlar, ya’ni fonetik birliklarning o’zaro qo’llanilishi o’rganilgan.*

Kalit so’zlar: *“Musofir bo’lmaguncha” asari, badiiy matn, fonetik tahlil, nasriy matn, ekspressivlik, ta’sirchanlik, obrazlilik, fonetik usul, fonografik usul, unli larni cho’zish usuli, qahramon munosabati.*

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xusiyatlariga ham alohida e’tiborni qaratish lozim. She’riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she’rda o’ziga xos jozibador ohang bo’ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy jihatdan qo’llash natijasida erishiladi. She’riy matnlarda asosan, alliteratsiya(undoshlar takrori), assonans(unlilar takrori), gemintsia(undoshlarni qavatlash) kabi bir qancha fonetik usullardan keng foydalaniladi. Nasrda esa unli larni cho’zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, tovush tushirish yoki tovush orttirish kabi fonetik usullar yordamida badiiy asarning ta’sirchanligi, ekspressivligi ta’minlanadi. Badiiy asarlarda ruhiy holatlarni yozuvda ifodalash o’ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Asarda qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo’lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so’roq, ta’kid, qoniqmaslik, norozilik, tilak-istak, qo’llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan ifodalab berishda yozuvchilar unli yoki undosh harflarni birdan ortiq yozish usulidan foydalanadilar. [2,56;57].

Unli larni birdan ortiq yozish usuli haqida gapiradigan bo’lsak, bunda unlini cho’zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Ya’niki, ma’lum bir unli harfni cho’zib talaffuz qilish orqali asar qahramonining mavjud voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me’yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanilishi ta’kidlanadi. [3,127] Shuningdek, badiiy matnda unli larni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayratlanishi, taajjubga tushishi, kabi holatlarini ifodalashda foydalaniladi. Yana ushbu fonografik usuldan badiiy matnda xitob, chaqirish, da’vat, tinglovchi e’tiborini jalb qilish kabi maqsadlarda ham keng foydalanilishini kuzatish mumkin bo’ladi. Endi quyida Sh. Boshbekovning “Musofir bo’lmaguncha” asarining ushbu fonografik usuldagi tahliliga yuzlanamiz. Jonli so’zlashuvda unli larni aktyor cho’zib talaffuz qilsa, uni

o'qiyotgan kitobxonga ham xuddi shu vaziyatni yaratish maqsadida ushbu asarda ham muallif unililar cho'ziqligiga e'tibor qaratgan. Asarda keltirilgan unililarning fonetik tahlili quyidagichadir:

1. Chindan uchib ketsam-a? Qushlarga maza... "Voy, *e-naa*" deb baqirib uchsam kerak, qo'rqqanimni bildirmaslik uchunda... Baribir uchish yaxshi...
2. Do'lana, do'lana, do'lana, tog'da o'sgan do'lana, O'z yoriga yetolmay dog'u *sarso-o-on* do'lana...
3. Halollab oldimi ishqilib? – so'radi Qo'zivoy achinib. Qayoqda ulgurmedi bechora...
Haa-a, chatoq bo'пти...
4. *E-e*, Qo'zivoy aka, keeling, keeling! – deya Qarshiboy o'rnidan turdi.
5. *Xo'-o'sh*, boshlayversam bo'lar, hamma yig'ildi shekilli?
6. Qo'zivoy u yoqdan bu yoqqa shoshib o'tayotgan styuardessalarga qarab turib birdan jazavaga tushib dodlab qoldi: - *Voy, ena-a-a-a!*..
7. *Qumrii-ii!*.. – deb baqirdi Qo'chqor Parpidan ko'z uzmay. – Hayitga kiyadigan ko'ylagimni opchiq!..
8. Suv jimirlab turibdi. Hech zog' yo'q. qo'zivoy xo'rligi kelib yig'lab yubordi: - *Shapa-a-at!*..
9. *I-i-i*, kelin, Qo'zim emas, samolyot yo'qolibdi deyapman! – deb Qo'chqor uning atrofida girdikapalak bo'la boshladi.
10. Biroq endi kech edi. – *Shapa-a-at!*..
11. Bilganimda o'sha tomonga qarab baqirardim, "Voy, *ena-a-a*" deb!..
12. *E-e-e*, nima qilyapsiz? O'pkangizni bosib oling, aka!
13. *A-a-a!!!* Yo astag'furulloh-e!.. Arvohmisan?..
14. "Bir qarasang uvildiriq, bir qarasang tutandiriq, bir qarasang shimildiriq!"
A-a-a-xa-xa!..
15. *Ha-a*, boringga shukur, sen bo'lmaganingda tilimniyam unutib, dinimniyam unutib bir chulchut bo'lib ketarmidim, kim bilsin...

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, badiiy matnning fonetik-fonologik xususiyatlari matn kuchini ta'minlab beruvchi asosiy, tayanch bo'g'in hisoblanadi. Matn kuchi deganda matnning ekspressivligi, emotsionalligi, obrazlilik, jozibadorligi, kitobxonni jalb qila olish kabi bir qancha xususiyatlar tushuniladi. Ushbu tahlil qilingan "Musofir bo'lmaguncha" asari ham xuddi shunday asar hisoblanib qolmay, shak-shubhasiz o'quvchini o'ziga qarata oladi desak adashmagna bo'lamiz. Matn tarkibida unililarni cho'zish usuli nihoyatda ko'p qo'llanilgan bo'lib, aynan mana shu jarayon orqali ham matn ta'sirchanligi yanada ortgan. Unililarni cho'zish jarayonida ularda turli ma'no nozikliklarining kashf etilishi yozuvchining qanchalik mahoratli ekanligini ko'rsatib berishi bilan bir qatorda, asarni o'qishlilikini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Biz ushbu maqolada statistik tahlil metodiga ham yuzlandik. Statistik tahlil metodiga ko'ra unililar fonetikasi tahlil qilinganda asarda 15 o'rinda unililarning cho'ziq holda qo'llanilishi ko'rib chiqildi. Tahlil qilish mobaynida ma'lum bir unililarning boshqalariga nisbatan

cho'ziqroq talaffuziga ham guvoh bo'ldik. Jumladan, *a, o, i, e, o'* unililari asarda nisbatan faol qo'llanilgan. Asar matnida qo'llanilganligiga ko'ra ushbu unililarning ikkilangan va uchlangan holatlari kuzatilgan. Xususan, asar matnida *a, e, o', i, o* unililarining uchlangan holatda qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz. Shuningdek, asar tahlili jarayonida ushbu usul orqali butun bir boshli matn ma'nosiga qo'shimcha ravishda kesatliq, piching, tasdiq, hayratlanish, norozilik, taajjublanish, kinoya, ta'kid, rozilik, xursandlik, hayrat kabi bir necha ma'no nozikliklarini yuklanganligini bilib oldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boshbekov Sh. "Temir xotin"(komediya). – T: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti", 2016.
2. Qurbonova M. Matn tilshunosligi. – T: "Universititet" nashriyoti,2014.
3. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. –T: "Fan",1963.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – T.,2007.
5. Jo'rayeva M. "Qora kitob" qissasida metaforik ko'chimlarning ifodalanishi
Академические исследования в современной науку 1(19), 134-138, 2022